

## AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 09 | pp. 203-220 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

### TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI (NPL) SAMARALI BOSHQARISH



**Dusanov Doniyor Urazbaevich**  
Tashkent International University  
mustaqil izlanuvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tijorat banklari kredit portfelida muammoli kreditlari ulushini kamaytirish masalalari tadqiq etilgan. Tijorat banklari tomonidan iqtisodiyotning real sektoriga ajratiladigan kreditlar miqdori yildan yilga oshib bormoqda. Shu sababli tijorat banklari oldida turgan asosiy vazifalardan biri bu, kredit resurslarini samarali joylashtirish va ularni o'z vaqtida qaytarilishini ta'minlashdan iboratdir. Bunda har bir tijorat banki tomonidan ishlab chiqilgan kredit siyosati va uni har tomonlama puxta tuzilishi bank barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, maqolada muammoli kreditlarni samarali boshqarishning ekonometrik modellashtirish amalga oshirilgan.

**Kalit so'zlar:** muammoli kreditlar, bank aktiolari, kredit portfeli, aktiolar sifati, aktiolarini tasniflash.

**Аннотация:** В статье рассматриваются вопросы снижения доли проблемных кредитов в кредитном портфеле коммерческих банков. Объём кредитов, выделяемых коммерческими банками реальному сектору экономики, увеличивается с каждым годом. Поэтому одной из основных задач коммерческих банков является эффективное распределение кредитных ресурсов и обеспечение их своевременного возврата. При этом разрабатываемая каждым коммерческим банком кредитная политика и её комплексная структура способствуют обеспечению устойчивости банка. Вместе с тем в статье проводится эконометрическое моделирование эффективного управления проблемными кредитами.

**Ключевые слова:** проблемные кредиты, банковские активы, кредитный портфель, качество активов, классификация активов.

**Abstract:** This article considers the ways to reduce the share of non-performing loans in commercial banks' loan portfolios. The volume of loans provided by commercial banks to the real sector of the economy is increasing every year. Therefore, one of the core objectives of commercial banks is the efficient allocation of loan resources and ensuring their timely repayment. Furthermore, the lending policy developed by each commercial bank and its comprehensive structure contribute to ensuring the bank's stability. In addition, the article provides econometric modeling for efficient management of the non-performing loans.

**Keywords:** non-performing, bank assets, loan portfolio, asset quality, asset classification.

## Kirish

Muammoli kreditlarni boshqarish tijorat banklari faoliyatida strategik ahamiyatga ega bo'lgan yo'nalish hisoblanadi. U, avvalo, bank tomonidan depozitlar va qarzlarni ko'rishida jalb qilingan mablag'larni turli iqtisodiy sikllar, bozor kon'yunkturasidagi o'zgarishlar va mavsumiy holatlar ta'siridan himoya qilish vositasi sifatida xizmat qiladi. Shu bilan birga, muammoli kreditlarni samarali boshqarish aktivlar portfelini shakllantirishda muhim instrument bo'lib, bank risklari darajasini pasaytirish hamda aktivlarning sifatini oshirish imkonini yaratadi.

Ushbu jarayonning asosiy mohiyati shundaki, muammoli kreditlarni boshqarish turli usul va mexanizmlarning uyg'un tarzda qo'llanilishini talab qiladi. Ya'ni kredit portfelini diversifikatsiya qilish, qarz oluvchilarning moliyaviy barqarorligini tizimli baholash, kredit shartlarini qayta ko'rib chiqish, restrukturizatsiya qilish, ta'minotni kuchaytirish kabi usullar alohida holda emas, balki bir-biri bilan chambarchas bog'langan holda yagona boshqaruv jarayoni sifatida amalga oshirilishi zarur.

Shundan kelib chiqqan holda, muammoli kreditlarni boshqarishning asosiy vazifasi bank uchun ehtimoliy yo'qotishlarni minimallashtirish va kredit resurslarining qaytarilishini ta'minlashdan iboratdir. Bu vazifa amalga oshirilgan taqdirda, bankning moliyaviy barqarorligi mustahkamlanadi, likvidlik darajasi yuqori saqlanadi va umumiy iqtisodiy faoliyatga ijobiy ta'sir ko'rsatiladi.

Muammoli kreditlarni samarali boshqarish natijasida bankning kredit siyosati izchillikka ega bo'ladi, kreditlash jarayonlarida risklar oldindan baholanadi va ularni kamaytirish uchun maqbul choralar ko'riladi. Bu esa nafaqat bankning moliyaviy manfaatlarini himoya qiladi, balki milliy bank tizimi barqarorligi va iqtisodiyotdagi moliyaviy vositachilikning samaradorligini ham ta'minlaydi.

## Adabiyotlar tahlili

Bank ishida muammoli kreditlarni boshqarish mohiyatiga e'tibor qaratsak, ushbu atama ilmiy va amaliy jihatdan ilk bor o'tgan asrning 1960-yillarida AQShda shakllangan. Uning asosiy mazmuni avvalo foiz stavkalari o'zgarishi bilan bog'liq risk darajasini samarali boshqarish zaruriyatini nazarda tutadi. Chunki aynan shu davrdan boshlab tijorat banklari moliyaviy bozorlardagi raqobat sharoitida risk va daromad o'rtasidagi mutanosiblikni saqlash masalasiga jiddiy e'tibor qarata boshladi<sup>1</sup>.

Ushbu tushuncha yuzaga kelgunga qadar ham bank amaliyotida muammoli kreditlarni boshqarishga oid ayrim instrumentlardan foydalanilgan. Masalan, qarz oluvchilarning moliyaviy holatini baholash, kredit taqsimotida diversifikatsiya siyosati yuritish, garov ta'minotini taqozo etish kabi choralar amalda qo'llanilgan. Biroq, bozor iqtisodiyotidagi jarayonlar intensivligi va moliyaviy instrumentlar ko'lamining kengayishi ortidan mazkur usullar yetarli emasligi ma'lum bo'ldi.

Raqobat kuchaygan sari banklar uchun yuqori daromad darajasini ta'minlash bilan bir qatorda risklarning barqaror boshqarilishi tobora muhim ahamiyat kasb eta boshlaydi. Shu jarayon banklar oldiga yangi vazifani — aktiv va passiv operatsiyalarni birgalikda, ya'ni balansning har ikki tomonini kompleks boshqarish zaruriyatini qo'ydi. Bunday

<sup>1</sup> The effect of bank management on liquidity // Academy of Banking Studies Journal. Vol. 1, Issue 4, May 2022. Scopus, ISSN: 1939-2230.

yondashuv orqali kredit resurslari taqsimoti, majburiyatlarning tuzilishi va likvidlik darajasi o'zaro bog'liq holda tahlil qilinib, risklarning oldini olish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash imkoni yaratiladi.

Demak, muammoli kreditlarni boshqarish tushunchasi tarixan faqat kreditning to'lanmaslik xavfini cheklash bilan chegaralanib qolmagan, balki umumiy moliyaviy risklarni samarali nazorat qilish, balans siyosati orqali bankning barqaror faoliyatini ta'minlash kabi keng qamrovli vazifalarni ham o'z ichiga olgan holda rivojlandi.

Muammoli kreditlarni boshqarish nazariyasi va amaliyotini chuqur tahlil qilgan taniqli iqtisodchi-olim Piter S. Rouz bu jarayonning mohiyatini keng qamrovli tarzda izohlaydi. Uning fikricha, muammoli kreditlarni boshqarishning asosiy mazmuni – bu bank balansi tarkibini bankning strategik maqsadlari va dasturlari bilan uyg'un holga keltiruvchi strategiyani shakllantirish hamda uni amalga oshirishda ko'rinadi<sup>2</sup>. Demak, muammoli kreditlarni samarali boshqarish bankning kredit siyosati, moliyaviy qarorlari va rivojlanish dasturlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularning barchasi uzoq muddatli strategiya bilan muvofiqlashgan holda amalga oshirilishi talab etiladi.

Yuqorida keltirilgan ta'rif va ilmiy yondashuvlardan xulosa qilish mumkinki, muammoli kreditlarni boshqarish faqat qarzlarni qaytarish yoki yo'qotishlarni kamaytirish bilan cheklanmaydi. U kengroq ma'noda – bank moliyaviy menejmentining maqsadlariga erishishga xizmat qiluvchi balans siyosati va uning tarkibiy qismlarini optimallashtirish jarayonidir. Bu esa:

aktiv va passivlarning muvozanatini ta'minlash;

kredit portfelini tarkibiy jihatdan takomillashtirish;

risklarni hisobga olgan holda moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash kabi vazifalarni qamrab oladi.

Shu nuqtai nazardan, Piter S.Rouzning mazkur fikrlarini zamonaviy bank boshqaruvi nazariyasida keng qo'llaniladigan Asset-Liability Management (ALM) tushunchasi bilan uyg'un holda ko'rib chiqish mumkin. ALM – bu bank aktivlari va passivlarini kompleks boshqarish, ularning muddat va daromadkorlik jihatdan muvofiqligini ta'minlash, shuningdek, likvidlik va risk darajasini optimallashtirish jarayonidir.

Muammoli kreditlarni boshqarish amaliyoti ALM konsepsiyasi bilan quyidagi jihatlarda uzviy bog'liq:

ALMda aktiv va passivlar tarkibidagi muvozanat strategik maqsad sifatida belgilansa, muammoli kreditlarni boshqarishda ham kredit portfelini balans tarkibi bilan uyg'unlashtirish ustuvor vazifa hisoblanadi.

ALMda asosiy maqsadlardan biri – foiz stavkalari, likvidlik va kredit risklarini kamaytirishdir. Muammoli kreditlarni boshqarishda ham aynan shu yo'nalish orqali yo'qotishlarni cheklash ko'zda tutiladi.

ALM moliyaviy barqarorlik va uzoq muddatli daromadni ta'minlashga xizmat qiladi. Muammoli kreditlarni boshqarish esa, o'z navbatida, sof foiz daromadini optimal darajada saqlash hamda bank kapitalining bozor qiymatini oshirishga qaratilgan.

<sup>2</sup> Питер С.Роз. Банковский менеджмент.

Shu bois, Piter S. Rouz ta'kidlaganidek, muammoli kreditlarni boshqarish – bu faqat texnik yoki moliyaviy usullar majmui emas, balki strategik yo'nalishga ega bo'lgan boshqaruv konsepsiyasidir. Uning mazmuni va amaliy ahamiyati zamonaviy ALM tizimida to'liq namoyon bo'ladi. Bu esa bankning moliyaviy barqarorligini ta'minlash, kapital qiymatini oshirish va uzoq muddatli rivojlanish dasturlarini amalga oshirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, muammoli kreditlarni boshqarish – bu faqat texnik yoki moliyaviy usullar majmui emas, balki strategik yo'nalishga ega bo'lgan boshqaruv konsepsiyasi hisoblanadi. Uning maqsadi bank barqarorligini ta'minlash, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash va uzoq muddatli rivojlanish dasturlarini amalga oshirish bilan chambarchas bog'liqdir.

Shu jihatdan, muammoli kreditlarni boshqarish jarayonini bankning umumiy moliyaviy siyosati doirasida ko'rib chiqish zarur. Chunki balans tarkibini to'g'ri shakllantirish orqali bank o'zining strategik ustuvor yo'nalishlariga erishadi, moliyaviy barqarorlikni ta'minlaydi va kreditlash faoliyatidan kelib chiqadigan ehtimoliy xavf-risiklarni minimal darajaga tushiradi.

Muammoli kreditlarni boshqarish maqsadlari yuzasidan iqtisodchi olimlar turlicha qarashlar bildirgan. Xususan, O.I.Lavrushin ta'kidlashicha, muammoli kreditlarni boshqarishning asosiy maqsadi – bankning bosh strategiyasi natijalarini balans tarkibi va rentabelligiga ko'ra tahlil qilish orqali yuzaga kelgan nomutanosibliklarni bartaraf etish yoki ularni to'g'ri yo'nalishga solish hamda bank faoliyatini ehtimoliy risklardan himoya qilishdan iborat<sup>3</sup>. Ushbu ta'rifdan ko'rinadiki, muammoli kreditlarni boshqarish faqat texnik yoki moliyaviy choralar yig'indisi emas, balki bank strategiyasida belgilangan ustuvor yo'nalishlar bilan chambarchas bog'liq jarayondir.

Fikrimizcha, mazkur masalaga avvalo bank strategiyasi nuqtai nazaridan yondashish maqsadga muvofiqdir. Ma'lumki, har qanday strategiya asosida aniq maqsadlar tizimi yotadi va ushbu maqsadlar vaqt omillari bilan belgilanadi. Shu jihatdan, muammoli kreditlarni boshqarish maqsadlarini vaqt gorizontiga ko'ra qisqa muddatli va uzoq muddatli aspektlarda farqlab ko'rib chiqish mumkin.

Qisqa muddatli aspekt (1 yilgacha). Bu bosqichda muammoli kreditlarni boshqarishning asosiy vazifasi – bankning sof foiz daromadini belgilangan me'yoriy risk darajasida maksimallashtirish yoki aksincha, belgilangan me'yoriy sof foiz daromadi doirasida riskni minimallashtirishdan iborat. Boshqacha aytganda, qisqa muddatli maqsad bankning joriy moliyaviy barqarorligini ta'minlash va likvidlik darajasini saqlashga qaratilgan.

Uzoq muddatli aspekt. Bu bosqichda esa muammoli kreditlarni boshqarishning asosiy maqsadi bank kapitalining bozor qiymatini oshirishdan iboratdir. Bank kapitalining bozor qiymatini maksimallashtirish esa bir nechta muhim vazifalarni hal qiladi<sup>4</sup>:

bankning uzoq muddatli rivojlanishi uchun zaruriy resurs bazasini yaratadi;  
moliyaviy barqarorlik va investitsiyaviy jozibadorlikni ta'minlaydi;  
nazorat va tanzimlovchi organlarning ortib borayotgan talablarini to'liq bajarish imkoniyatini beradi;

<sup>3</sup> Лаврушин О.И. Управление деятельностью коммерческого банка. - М.: КНОРУС, 2021. 580 с.

<sup>4</sup> Western and Eastern practices in banking // American Economic Journal: Applied Economics. Vol. 8, Issue 3, 2020. Scopus, (ISSN: 1945-7782).

moliya bozorida raqobatbardoshlikni saqlab qolishga xizmat qiladi.

Shu bilan, muammoli kreditlarni boshqarish maqsadlari bankning umumiy strategiyasi bilan uzviy bog'liq holda shakllanadi. Qisqa muddatli maqsadlar orqali bankning joriy moliyaviy manfaatlari va likvidligi himoya qilinadi, uzoq muddatli maqsadlar esa kapital qiymatini oshirish orqali uzoq muddatli barqaror rivojlanish uchun asos yaratadi<sup>5</sup>.

Muammoli kreditlarni samarali boshqarishni shartli ravishda ikki asosiy yo'nalishga ajratish mumkin: bazaviy (reaktiv) va murakkab (proaktiv) usullar.

Bazaviy yoki reaktiv boshqaruv usulida bank asosan tashqi muhitda yuzaga kelgan o'zgarishlarga javob qaytaradi. Bu holatda asosiy e'tibor qonunchilik talablari va nazorat organlari ko'rsatmalariga rioya qilishga qaratiladi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilanadigan kapital yetarliligi, likvidlilik, aktivlarning foiz stavkalari va valyuta kurslari o'zgarishiga ta'sirchanligi kabi ko'rsatkichlar tijorat banklari tomonidan ichki omillar sifatida qabul qilinadi va ular asosida boshqaruv qarorlari qabul qilinadi.

Shunday holatda muammoli kreditlarni boshqarishning asosiy vazifasi quyidagilardan iborat bo'ladi:

joriy balans tarkibida mavjud risklarni aniqlash va miqdor jihatdan baholash;

ushbu risklarni tahlil qilish orqali ularni me'yoriy darajada ushlab turish;

foiz riski va valyuta riskini cheklash maqsadida moliyaviy bozorlardagi operatsiyalarni tartibga solish.

Biroq reaktiv boshqaruvning muayyan kamchiliklari mavjud. Jumladan, bunday yondashuvda banklar asosan tashqi muhit o'zgarishlariga bog'liq holda harakat qiladi. Bu esa ularning o'z tashabbusi bilan strategik qarorlar qabul qilish imkoniyatini cheklaydi va raqobatbardoshlik sharoitiga mos kelmaydi.

Murakkab yoki proaktiv boshqaruv esa bundan farqli ravishda, bank faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf-risklarni oldindan bashorat qilish, ularni to'liq tahlil qilish va profilaktik choralar ko'rishni nazarda tutadi. Bunday yondashuvda risklar faqat passiv tarzda cheklanibgina qolmay, balki ularni samarali boshqarish orqali bank faoliyati uchun imkoniyatga aylantirish maqsad qilinadi. Shu tariqa, muammoli kreditlarni boshqarish jarayoni raqobatbardoshlikni kuchaytirish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va uzoq muddatli strategiyalarni amalga oshirishga xizmat qiladi<sup>6</sup>.

Iqtisodchi olim V.Usoskin o'z ilmiy izlanishlarida tijorat banklari aktivlarining asosiy turlari – kreditlar va kassali aktivlar sifati masalasiga alohida e'tibor qaratgan. Uning fikricha, bank faoliyatining barqarorligi va moliyaviy samaradorligi ko'p jihatdan aynan ushbu aktivlarning sifat darajasiga bog'liq. Shu munosabat bilan olim kredit portfelining sifatini oshirish maqsadida ikki muhim yo'nalishni taklif qiladi<sup>7</sup>:

Mijozlarning kredit to'lov layoqatini baholash tizimini takomillashtirish. Usoskinning fikricha, kredit berish jarayonida qarzdorning moliyaviy barqarorligi, daromad manbalari, qarz qaytarish imkoniyatlari va umumiy risk profilini chuqur tahlil qilish zarur. Bu borada zamonaviy kredit skoring tizimlari alohida ahamiyat kasb etadi.

<sup>5</sup> Western and Eastern practices in banking // American Economic Journal: Applied Economics. Vol. 8, Issue 3, 2020. Scopus, (ISSN: 1945-7782).

<sup>6</sup> Aliqulovich et al./Procedia Environmental Science, Engineering and Management, 11, 2024, 2, 209-214 // The Impact of Artificial Intelligent Systems on Economic Growth in Developing Countries.

<sup>7</sup> Усоскин В.М. Современный коммерческий банк. – Москва: Вазар-Ферро, 2018. – С. 218-276.

Masalan, AQSh va Yevropa mamlakatlarida qo'llaniladigan FICO Score yoki Basel II/III standartlari asosidagi ichki reyting tizimlari banklarga qarzdorlarni tezkor va aniq baholash imkonini beradi. Ushbu tizimlar katta hajmdagi statistik ma'lumotlar va algoritmlardan foydalangan holda qarz to'lash intizomi va risk darajasini prognoz qiladi. Shu orqali banklar muammoli kreditlarning yuzaga kelishini oldindan bartaraf etish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Banklar kredit portfelini diversifikatsiya qilish. Usoskin ta'kidlaganidek, kredit resurslarini muayyan tarmoqqa yoki alohida mijozlar guruhiga katta hajmda yo'naltirish bank uchun yuqori risk keltirishi mumkin. Shu bois, diversifikatsiya prinsipiga qat'iy rioya qilish kredit portfelini barqarorlashtirishning muhim sharti hisoblanadi. Xalqaro amaliyotda ham bu qoida keng qo'llaniladi. Masalan, Yaponiya va Germaniya banklari kredit portfelini turli tarmoqlar, mintaqalar va mijoz segmentlari bo'yicha taqsimlash orqali iqtisodiy sikllardan kelib chiqadigan xavflarni kamaytiradi. AQSh va Buyuk Britaniyada esa diversifikatsiya strategiyasi nafaqat tarmoqlar kesimida, balki kredit turlari (ipoteka, iste'mol kreditlari, korporativ qarzarlar) bo'yicha ham amalga oshiriladi.

Shunday qilib, Usoskinning ilmiy qarashlari zamonaviy bank amaliyoti bilan uyg'un holda ko'rib chiqilganda, quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

Kredit skoring tizimlari – mijozlarning kredit to'lov qobiliyatini aniq baholash va risklarni oldindan bashorat qilish orqali kredit portfelining sifatini oshirishning samarali vositasi hisoblanadi.

Diversifikatsiya siyosati – kredit portfelini turli sohalar va mijozlar guruhlari kesimida taqsimlash orqali muammoli kreditlar ulushini kamaytirish va bankning moliyaviy barqarorligini ta'minlaydi.

Uyg'un yondashuv – zamonaviy skoring modellari va diversifikatsiya strategiyasini birgalikda qo'llash tijorat banklari uchun kredit risklarini samarali boshqarishda eng maqbul yechim hisoblanadi.

Olimning ushbu fikrlaridan kelib chiqib aytish mumkinki, tijorat banklari uchun faqat resurslarni jalb qilish emas, balki ularni sifat jihatdan to'g'ri taqsimlash, mijozlarni to'g'ri baholash va riskni diversifikatsiya orqali nazorat qilish strategik ahamiyatga ega. Bunday yondashuv bankning kredit siyosatini samarali yuritish, muammoli kreditlar ulushini kamaytirish va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Bank kreditlarining o'sish tendensiyasi ko'plab makroiqtisodiy, moliyaviy va institutsional omillar ta'sirida shakllanadi. Ular qatoriga quyidagilar kiradi:

mamlakatdagi yalpi ichki mahsulot (YaIM) o'sish sur'ati;

inflyatsiya darajasi va pul-kredit siyosati parametrlari;

tijorat banklarining foiz stavkalari va depozit bazasi barqarorligi;

likvidlik ko'rsatkichlari hamda kapital yetarliligi;

tashqi investitsiya faolligi va xorijiy kapital ishtirokining darajasi.

Ushbu omillarni ilmiy tahlil qilish va ularning bank kreditlari hajmiga ta'sirini iqtisodiy-matematik modellar orqali baholash bank faoliyati samaradorligini oshirishda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Modellashtirish orqali bank kreditlari o'sishiga ta'sir etuvchi

omillarni aniqlash, ularning ta'sir kuchi va yo'nalishini baholash, shuningdek, kelgusi prognozlarini shakllantirish imkoni yaratiladi.

Shu nuqtai nazardan, chet el kapitali ishtirokidagi "Hamkorbank" aksiyadorlik tijorat banki misolida 2020–2025 yillar davomidagi (60 ta kuzatuv asosida) moliyaviy ko'rsatkichlarni tahlil qilish orqali bank kreditlarining o'sish dinamikasiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqot doirasida quyidagi masalalarga e'tibor qaratildi:

bankning umumiy aktivlari, depozit bazasi, foiz daromadlari va ishonchlilik indeksi kreditlar hajmiga qanday ta'sir ko'rsatishini aniqlash;

bank kapitali va likvidlik darajasi kreditlar o'sishiga qanday bog'liqligini baholash;

makroiqtisodiy muhit (inflyatsiya, iqtisodiy o'sish, milliy valyuta barqarorligi) omillarining ta'sirini modellashtirish.

Shu tarzda, "Hamkorbank" misolida kreditlash hajmining o'sishiga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili va modellashtirilishi bank faoliyati samaradorligini oshirish, kredit siyosati ustuvor yo'nalishlarini belgilash hamda kelgusi strategik qarorlar qabul qilishda ilmiy asos yaratib beradi.

Bunday yondashuv nafaqat ushbu bankning kredit portfelini samarali boshqarishda, balki umumiy bank tizimidagi kredit faolligini optimallashtirish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot doirasida bank kredit faoliyatining o'sish sur'atlariga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va ularning ta'sir kuchini baholash maqsadida chet el kapitali ishtirokidagi "Hamkorbank" aksiyadorlik tijorat banki misolida ekonometrik model ishlab chiqildi. Ushbu modelda natijaviy omil ( $Y$ ) sifatida bank kredit portfelining umumiy o'sish sur'ati qabul qilindi, chunki mazkur ko'rsatkich bank faoliyati samaradorligi va kreditlash siyosati dinamikasini ifoda etadi.

Modelda ta'sir etuvchi omillar sifatida bankning kredit faoliyati va moliyaviy barqarorligiga to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita ta'sir ko'rsatuvchi 14 ta muhim ko'rsatkich tanlab olindi:

X1 – milliy valyutada ajratilgan kreditlar (mlrd so'm). Bu ko'rsatkich ichki moliya bozorida milliy valyutadagi kreditlash hajmini ifodalaydi hamda bank likvidligi, milliy iqtisodiyotdagi ishonch darajasi va pul-kredit siyosati samaradorligini aks ettiradi.

X2 – xorijiy valyutada ajratilgan kreditlar (mlrd so'm). Xorijiy valyutadagi kreditlar hajmi tashqi bozorlar bilan bog'liq moliyaviy faollikni ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich valyuta kursining barqarorligi va tashqi moliya manbalaridan foydalanish darajasini aniqlash imkonini beradi.

X3 – davlat dasturlari doirasida ajratilgan kreditlar (mlrd so'm). Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanuvchi loyihalar doirasida berilgan kreditlar miqdori bankning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatdagi ishtirokini va davlatning iqtisodiy faolligini aks ettiradi.

X4 – kreditlarning o'rtacha foiz stavkasi (%). Kredit bo'yicha foiz stavkalari bankning kredit siyosati, xavf darajasi va bozor raqobati sharoitlarini belgilaydi.

X5 – milliy valyutadagi kreditlarning o'rtacha foiz stavkasi (%). Milliy valyutadagi foiz stavkalari ichki bozordagi pul qiymati, inflyatsiya darajasi va milliy moliyaviy barqarorlikning ifodasi hisoblanadi.

X6 – xorijiy valyutadagi kreditlarning oʻrtacha foiz stavkasi (%). Bu koʻrsatkich bankning xalqaro moliyaviy bozorlar bilan munosabatini, valyuta xavflarini va tashqi moliya resurslariga kirish imkoniyatini tavsiflaydi.

X7 – davlat dasturlari doirasidagi kreditlarning oʻrtacha foiz stavkasi (%). Ushbu stavka davlat qoʻllab-quvvatlovi darajasini, imtiyozli kreditlash siyosati samaradorligini va ijtimoiy loyihalarni moliyalashtirishdagi bank ishtirokini koʻrsatadi.

X8 – depozitlar (mlrd soʻm). Depozitlar hajmi bankning resurs bazasini belgilaydi, likvidlik darajasi va mijozlar ishonchi koʻrsatkichi sifatida xizmat qiladi.

X9 – bank kapitali (mlrd soʻm). Kapital miqdori bankning moliyaviy barqarorligini va tavakkalchilikni qoplash imkoniyatini belgilaydi.

X10 – foizli daromadlar (mlrd soʻm). Foizli daromadlar bank faoliyati samaradorligining asosiy koʻrsatkichi boʻlib, kredit portfeli foydaliligini va resurslardan foydalanish samarasini ifoda etadi.

X11 – foizli xarajatlar (mlrd soʻm). Bu koʻrsatkich bankning foiz siyosatidagi xarajat yukini ifoda etadi va kredit foiz stavkalari bilan bogʻliq balansni tahlil qilish imkonini beradi.

X12 – muammoli kreditlar qoldigʻi (mlrd soʻm). Muammoli (yaʼni toʻlanmagan yoki kechiktirilgan) kreditlar bank kredit portfelinin sifatini baholashda muhim ahamiyatga ega boʻlib, kredit xavfini koʻrsatadi.

X13 – boshqa banklardan jalb qilingan kreditlar (mlrd soʻm). Bu koʻrsatkich bankning tashqi moliya institutlari bilan hamkorlik darajasini va tashqi likvidlik manbalaridan foydalanish imkoniyatini ifoda etadi.

X14 – Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining milliy valyutadagi depozitlariga nisbatan belgilangan majburiy zaxira stavkasi (%). Majburiy zaxira normalari pul-kredit siyosati vositasi boʻlib, banklar likvidligiga va ularning kreditlash imkoniyatlariga bevosita taʼsir koʻrsatadi.

Shu tariqa, mazkur model orqali "Hamkorbank" ATB misolida kreditlash hajmining oʻsishiga taʼsir etuvchi omillar oʻrtasidagi oʻzaro bogʻlanish va taʼsir darajasi aniqlanadi. Ushbu yondashuv bank faoliyati samaradorligini chuqur tahlil qilish, kredit siyosatini optimallashtirish hamda barqaror rivojlanish strategiyasini belgilashda ilmiy asos boʻlib xizmat qiladi.

Tahlil qilinayotgan maʼlumotlarning oʻlchov birliklari turlicha boʻlgani uchun, ularni logariflaymiz. Natijada maʼlumotlar maʼlum darajada tekislanadi va bir xil oʻlchov birligiga keladi.

Tanlab olingan maʼlumotlar boʻyicha Eviews dasturida bir qator hisob-kitoblarni amalga oshirdik. Bular: omillar boʻyicha tavsifiy statistika – bu yerda asosan oʻrtacha koʻrsatkichlar, mediana, standart chetlanish, normal taqsimotga tekshirish uchun Jak-Bera koeffitsienti va uning ehtimolligi va boshqalar.

### **Tahlil va natijalar**

Tijorat banklarining kredit portfelini samarali boshqarishda uning tarmoqlar boʻyicha diversifikatsiya darajasi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu holat bank faoliyatidagi risklarni kamaytirish va aktivlarning barqarorligini taʼminlashda asosiy mezonlardan biri sifatida qaraladi. Aniqroq aytganda, kredit portfelini turli iqtisodiy tarmoqlar, sohalar va

mijozlar segmentlari bo'yicha taqsimlash bankning risk profilini optimallashtirish imkonini yaratadi.

Diversifikatsiya tamoyiliga qat'iy rioya qilish, kredit portfelining sifatini ta'minlashda eng muhim shartlardan biri hisoblanadi. Agar banklar kreditlarni muayyan tarmoq yoki mijoz guruhida jamlab qo'ysa, iqtisodiy kon'yunkturadagi salbiy o'zgarishlar portfelning umumiy barqarorligiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli, rivojlangan mamlakatlar tajribasida ham kredit portfelini tarmoq, hudud, mijoz va valyuta belgisi bo'yicha diversifikatsiya qilish, muammoli kreditlarni oldini olishning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Masalan, AQSh va Germaniya bank amaliyotida kreditlar nafaqat soha kesimida, balki mijozning moliyaviy xolati, bozordagi o'rni va faoliyat turi bo'yicha ham baholanadi.

Kredit portfelining sifatini baholashda kredit turlarining tuzilishi muhim rol o'ynaydi. Hozirgi vaqtda O'zbekiston bank amaliyotida kreditlar asosan ikki yirik guruhga ajratiladi:

Qisqa muddatli kreditlar — 1 yilgacha bo'lgan muddatda ajratiladi va asosan aylanma mablag'larni qoplash, mavsumiy ehtiyojlarni moliyalashtirish yoki ayrim qisqa muddatli loyihalarni amalga oshirish uchun xizmat qiladi.

Uzoq muddatli kreditlar — 1 yildan ortiq muddatga beriladi va odatda, investitsiya loyihalarini moliyalashtirish, asosiy vositalarni xarid qilish yoki qurilish ishlarini amalga oshirishga yo'naltiriladi.

Kreditlar turlariga qarab portfel tuzilishi bank likvidligi va foydalilik darajasiga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Masalan, qisqa muddatli kreditlar tez aylanadi, likvidlikni ta'minlaydi, ammo foydalilik potentsiali nisbatan past bo'ladi. Uzoq muddatli kreditlar esa yuqori foyda keltiradi, biroq likvidlik risklarini oshiradi. Shu bois, banklar mazkur ikki yo'nalish o'rtasidagi balansni saqlash orqali portfel barqarorligini ta'minlaydilar.

Muammoli kreditlarni samarali boshqarishda yana bir muhim yo'nalish, bu alohida olingan ssudalarning sifatini baholash mezonlarini ishlab chiqish va ularni muntazam ravishda tahlil qilib borish hisoblanadi.


